O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti

“Epizootologiya va infeksion kasalliklar” kafedrasi

60840100- Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi
5-bosqich 501-guruh talabalari uchun

“Epizootologiya va infeksion kasalliklar” fanidan “Oqsil kasalligi va qarshi kurash chora-tadbirlari” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot darsi bo‘yicha

Ochiq dars ishlanmasi

Samarqand – 2026

Tuzuvchi:

Allazov A.S. “Epizootologiya va infeksion kasalliklar” kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

Mamatova Z.B. “Epizootologiya va infeksion kasalliklar” kafedrasi dotsenti, veterinariya fanlari nomzodi.

Allamurodova M.M. Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori (PhD).

“Oqsil kasalligi va qarshi kurash chora-tadbirlari” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.

Vaqt: 2 soat	*Talabalar soni: 23 nafar*
O‘quv mashg‘ulotining shakli	laboratoriya
O‘quv mashg‘ulotining rejasi	1. Oqsil kasalligini epizootologiyasi 2. Oqsil kasalligining klinik va patanatomik diagnostikasi 3. Oqsil kasalligining laboratoriya diagnostikasi
Darsning maqsadi: Oqsil kasalligiga dastlabki va yakuniy diagnoz qo‘yish usullarini o‘rgatish.	
Pedagogik vazifalar: -oqsil kasalligi to‘g‘risida tushuncha berib talabalar e’tiborini tortish; -klinik tekshirish usullarini o‘rgatish; -kasallikga patanatomik tekshirishni o‘rgatish.	*O‘quv faoliyati natijalari:* Talabalar: - oqsil kasalligi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladilar, klinik hamda patanatomik tekshirib mustaqil xulosa qiladilar; Serologik hamda virusoskopik tekshirish usullari yordamida kasallikga yakuniy diagnoz qo’yish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.
Ta’lim usullari	amaliy mashg‘ulot, kichik guruhlarga bo‘linib amaliy topshiriqni bajarish
Ta’limni shakllantirish shakli	Jamoaviy, guruhli
Ta’lim vositalari	Amaliy mashg’ulot darsi mavzusi bo‘yicha dars ishlanmasi, videoproyektor, kompyuter, tarqatma materiallar, surtmalar, ishni bajarish bo‘yicha plakatlar, reaktivlar, yo‘riqnoma, ishlanmalar.
Ta’lim berish usullari	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Ishni bajarish texnikasi, tezkor – so‘rov, test.

Amaliy mashg’ulot darsining texnologik haritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
1 – bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Salomlashish, davomatni aniqlash, talabalar darsga tayyorgarligini tekshirish. 1.2. Mavzu mohiyati, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.	Eshitadi, yozib oladi.
2 – boqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o‘tkazadi. (Aqliy xujum metodi 1-ilova) 2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda mashg‘ulotning qisqacha bayonini tushuntirib beradi. (Klaster metodidan foydalangan holda 2-ilova) 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e’tibor qilishni va yozib olishlarini ta’kidlaydi. 2.4. Guruhni guruhchalarga bo‘ladi va har bir guruhga topshiriq beradi. (Kichik guruhlarda ishlash metodi 3-ilova) 2.5. O‘qituvchi go‘shtdan olingan namunalarda kasallikni aniqlashni tushuntiradi va amalda bajarib ko‘rsatadi. 2.6. O‘qituvchi guruhlar bajarayotgan ishlarni nazorat qilib yo‘riqnoma berib boradi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan mavzularni aytadi. O‘ylaydi, javob beradi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi.
3 –bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzuni yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligiga talabalar e’tiborini qaratadi. 3.2. Guruh ishini baholaydi; 3.3. Uyda bajarish uchun topshiriq beradi va baholash me’zonlari bilan tanishtiradi.	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.

O‘quv elementlari: afta, A, O, Aziya, epiteliyatrop, KBR, miotrop, IFT, PZR.


1-ilova

Aqliy xujum metodi

1.Oqsil kasalligida patmaterial olish tartibini ayting? **2.**Virusoskopiya usulini ayting? **3.**Yakuniy diagnoz nima asosida qo‘yiladi?

2-ilova

Klaster metodi



3-ilova

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”



Kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta’minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o‘rganishga imkoni tug‘iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o‘rgatadi.

MASHG'ULOT: Oqsil kasalligini aniqlash, oldini olish va qarshi kurash chora-tadbirlari

Oq sil ko'pincha o'tkir kechadigan, tez tarqaladigan infeksion kasallikdir. Shuning uchun oq silga aniq tashxis qo'yish va unga qarshi kurash tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish yaxshi samara beradi.

Ilgari sog'lom bo'lgan xo'jalikda tashxis qo'yish qiyinchilik tug'rishi mumkin chunki, oq sil aralash infeksiya bo'libkelishi mumkin. Bunda bizlar tashxis qo'yishda chuqur – epizootologik tekshirish o'tkazish kerak. Asosiy e'tiborni xo'jalikning iqtisodiy aloqalariga qaratish , oq sil kasalligida transport, odamlar va boshqa vositalar mexanik uzatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Oqsil – Lotincha Aphtae epizooticae, inglizchada Foot-and-Moythdisease, nemischada Maul-und-klaunseuche, fransuzchada Fievre aphteuse, ruschada Yashur – o'ta kontogiozli bo'lib, isitmalash, og'iz bo'shlig'ining shilliq pardasida, yelin va tuyoq oralig'ida aftalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bukasallik bilan juft tuyoqlilar va odamlar kasallanishadi. Otlar oq sil bilan kasallanmaydi, vizikulyar stomatitga sezgir. Qoramollar yoppasiga kasallanadi. Ularda holsizlanish, isitmaning ko'tarilishi, yosh mollarda 41°S gacha. Generalizasiya davridan keyin og'iz bo'shlig'idan, yelin so'rg'ichlarida, ayrim junsiz joylarida, tuyoqlar oralig'ida vezikula keyin aftalar paydo bo'ladi.

Qo'zg'atuvchisi – Aphtae viridaye, Aphtovirus avlodiga, Picornaviridae oilasiga mansub RNK li, filtrlanuvchi virus bo'lib, 20-25 nm kattalikka egadir. Antigenli xususiyatiga qarab 7 ta serologik tiplarga ajratilgan: O, A, S, Sat-1, Sat-2, Sat-3 va Aziya-1. Xar bir tip bir necha variantlarga ega: O-13ta, A-32 ta, S-5 ta, Sat-1da 7 ta, Sat-2da 3 ta, Sat-3da 4ta va Aziya-1da 2ta. Oqsil virusi bir qator bakteriya va viruslarni o'ldiradigan lizol, toluol, efir hamda xloroformga ancha chidamlidir.

Epizootologik ma'lumotlar. Epizootologik ma'lumotlarni tahlil qilayotganda mamlakatda mavjud bo'lgan barcha oqsilga nosog'lom punktlarni e'tiborga olish zarur, chunki oqsil virusi minglab km masofadagi epizootik o'choqdan, turli yo'llar bilan sog'lom hududga kirib keladi. Odamga kasallik hayvonlarni boqqanda, ularning pishirilgan suti va shu sutdan tayyorlangan mahsulotlarni iste'mol qilganda yuqadi. Virus organizmga og'iz bo'shlig'ining shilliq pardasi, ba'zan nafas yo'llari va shikastlangan teri orqali tushadi.

Kasallikka ko'proq yirik shoxli hayvonlar cho'chqalar moyil bo'lib, qo'y, echki va yovvoyi juft hayvonlar kamroq kasallanishadi. Kasallik yosh hayvonlarda kattalariga nisbatan og'ir kechadi. Kasallik manbai – kasal hayvonlardir.

Epizootik tahlilda ilgari nosog'lom xo'jalikda qanday usulda diagnoz qo'yilganligini, xo'jalikga qaysi yo'l bilan kirib kelganlishigni inobatga olish kerak. Agar xo'jalikda vozikulyar stomatit tarqalgan bo'lsa, uni farqlash kerak. Cho'chqalarda burun oynachasida, qo'ylarda yuqori jag'ining tishi paydo bo'lgandan keyin, organizmda ekzantema paydo bo'lgandan keyin, organizmdagi harorat o'z holatiga keladi.

Og'iz bo'shlig'ida aftalar yorilib, yaralar paydo bo'lgandan keyin, ko'piksimon sulak oqa boshlaydi. Oqsil bilan kasallangan sigirlarda sut berish qobiliyati pasayadi, sutning sifati ham o'zgaradi.

Buzoqlarda Oqsil juda og’ir o’tadi, aftasiz shaklda, yuqori harorat bilan utib 12-30 soat ichida hayvonlar o’lib ketadi. Qo’ylarda ham qoramollarga uxshash, isitma kutariladi og’iz bo’shlig’ida vezikula, keyin aftalar paydo bo’ladi, lekin sulak oqmaydi. Tuyoq oraligida yaralar paydo bo’lib, chuloqlanib qoladi. Laboratoriya tekshirishi uchun (Veterinariya qonuniyatlari kitobining 1-tom 190 betida ko’rsatilgandek namuna olinadi).

Oq sil ga laboratoriya tekshirish uchun epiteliy devoridagi pufakchalardan olinadi. Bir marta tekshirish uchun 5-10 g epiteliy afta toza idishga solinadi, ustiga 10 marta ko’p bo’lgan 50%li toza ximiyaviy eritmaga ega bo’lgan gliserin (RN-7, 47,6). (10 gr epiteliy afta 100 ml 50% gliserin eritmasi)ga solinadi. Tekshirish uchun faqat toza namuna, xali yoritilmagan, pishgan pufakchalarni toza qaychi bilan kesib olinadi. Qoramollardan tildan, qo’ylardan yuqori jag’ining tishsiz yoki tuyoq oralig’idan cho’chqalardan burun oynasidan olinadi. Namuna birdaniga 2-3 hayvondan olinadi. Olingan namuna maxsus og’zi mahkam yopiladigan idishga olinib, ustkiga paxta, keyin probka va qopqoq bilan yopiladi. Olingan namuna virus tipini aniqlash uchun foydalaniladi. Keyin talablarga maxsus tayyorlangan jadvallar, slaydlar, rasmlar orqali har xil hayvonlarda Oq sil kasalligining klinik kechishi ko’rsatiladi.

Oq sil bilan kasallangan hayvonlarni davolash

Oqsil kasalligi bilan kasallangan hayvonlarni davolashning yutug’i, ularni to’g’ri oziqlantirish va saqlash omillariga bog’liqdir. Kasal hayvonlarni tinch holatda saqlash, chunki ularning yurak qon tomir sistemasini taranglashtirmaslik maqsadida, ular turadigan joy toza bo’lib, har doim toza havo kirib turishi kerak. Hayvonlar tagidagi to’shamalar aralashtirilib turiladi. Oq sil kasalligida hayvon organizmida kuchli suvsizlanish holati bo’ladi, shuning uchun suvni ixtiyoriy ichishi kerak. Yosh mollarda gastroenterit holatida kechgaligi uchun margansovo-kislыy kaliy eritmasining (1:1000) nisbati 500 ml hajmda bir marta har vaqtda beriladi. Kasal hayvonlarga tez hazm bo’ladigan yumaloq, oziqalar beriladi.

Masalan: Yumaloq ko’k maysalar, unli atala, qish paytida yaxshi silos, yumaloq pichan beriladi. Og’iz bushligini 2% uksus kislota solingan toza suv bilan chayqash yoki margansovokisliy kaliy 1:1000, furasilin 1:5000 eritmasidan foydalanish kerak. Og’iz bo’shlig’i shillq qavati kuchli yallig’langan bo’lsa, malham surtish kerak (anestezin 2,5 gr: novokain 2,5 gr, mis kuparosi 5 gr: baliq yog’i 20 gr, vazelin 70 gr). Bunday malham eroziyaning tiklanishini tezlashtiradi, og’riqni qoldiradi, hayvonning ovqatlanishi yaxshi bo’ladi.

Tuyoq oralig’ini har 1-2 kunda tozalab «degot» va baliq moyi aralashtirib surtiladi. Bunday hayvonlarni yog’och qirindisiga singdirilgan dyogot yoki 5%li formol eritmasi solingan dezbaryerdan haydab o’tiladi. Agar tuyoqlari yengil jarohatlangan bo’lsa, sovun suvi, 1%li mis kuporosi, 2%li xloramin eritmasi bilan yuviladi. Keyin margansovo kislыy kaliy bilan bornaya kislota (aka) aralashtirilib sepiladi, yoki 10-20%li formalin suvli eritmasi surtiladi. Dyogot, baliq yog’i aralashmasini ham surtish mumkin. Agar tuyoqda chuqur yaralar bo’lsa, yod

eritmasi surtiladi. Tuyoqda o'lgan to'qimalar bo'lsa, tozalanib 0,5% li novokain eritmasi va penisillin bilan blokada qilinadi.

Oq sil kasalligidan hayvonda sepsis bo'lsa, 0,5%li novokain eritmasidan 0,5 ml 1 kg tirik og'irligiga yuborish tavsiya etiladi. Kasallangan sigir yelinini toza ko'l bilan sog'ish, sog'ishdan oldin sovunli suv bilan yuvish, keyin toza sochiq bilan artish darkor.

Agar Oq sil og'ir kechgan hayvonlar bo'lsa, yurak qon tomir qismida o'zgarish bo'lsa mikstura tavsiya etiladi (valerian nastoykasi 10 ml, landish nastoykasi 15 ml, bromistыy kaliy 6 gr distillangan suv 400 ml bir ichishga). Kasallangan hayvonlar orasida suv ichmay qo'yganlari bo'lsa, zond yoki rezinali shisha orqali 20-30 litr unli atala beriladi. Juda kuchsiz hayvonlarga 100-200 gr asal yoki yog'i olingan sutga 200-400 gr shakar qo'shib ichiriladi.

«Veterinariya qonuniyatlari» kitobida yozilgan zardob yoki rekonvalessent qonidan yoki Oq sil ga qarshi tayyorlangan immunolakton preparatidan foydalaniladi (1 tom V.K. 628-betga qarang).

Oqsilga qarshi oldini olish va yo'qotish tadbirlari tuzish

Oqsil tez va keng tarqaladigan yuqumli kasallik bo'lganligi tufayli, xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar keltirishligi sababli o'z vaqtida Veterinariya qonuniyatlari 1 tom, (178 bet va 1987 yilda) qabul qilingan qo'llanma asosida tadbir o'tkazish kerak.

Faqat qo'llanmada ko'rsatilganidek qat'iy, tez kasallikni yo'qotish tadbirlarini tuzish zarur. Tadbirlar usuli quyidagilardan iborat:

1. Sog'lom xo'jalik va fermalarda Oq sil kasalligi utmasligining oldini olish va shu tipga qarshi emlash ishlarini olib borishi, zoosanitar tashkil etish.
2. Kasallik chiqgan xo'jalikda o'z vaqtida kasallik uchog'ini topish va uni to'liq yo'qotish, bu kasallik manbai bo'lmasin.
3. Nosog'lom xo'jalikda Oq sil kasalligini yo'qotish tadbirlarini va karantin loyihasini tuzish haqida talabalarga to'liq Oq sil kasalligi qo'llanmasi asosida tushuntirish. Karantin paytida o'tkaziladigan ishlar, yakunlovchi dezinfeksiya, karantin olish uchun tuziladigan qaror loyihasini aytib berish kerak (tuziladigan dalolatnoma shaklini tushuntirib, dalolatnoma yozish kerak).
4. Karantin olingandan keyin o'tkaziladigan ishlar ya'ni cheklash qo'yish haqida ham to'liq ma'lumot aytish lozim.

Nazorat uchun savollar

1.Oqsil kasalligida dastlabki tashxis.
2.Laboratoriyaga oqsil kaslligida patmaterial jo'natish.
3. Oqsil kasalligini oldini olish va yo'qotish tadbirlari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Salimov S.X., Qambarov A.A., Salimov I.X. “Epizootologiya va infeksion kasalliklar” Darslik.Samarqand 2021 yil

2.Salimov X.S., Qambarov A.A. “Epizootologiya” Darslik. Samarqand, 2016 yil

3. Salimov S.X., Qambarov A.A., Salimov I.X. “Epizootologiya va infeksion kasalliklar” o’quv qo’llanma. Samarqand 2024 yil

Mavzu bo‘yicha test

1. Oqsil kasalligi qanday kasallik?

A) Juft tuyoqli hayvonlarda uchraydigan o‘ta yuqumli virusli kasallik

B) Faqat parazitlar chaqiradigan kasallik

D) Faqat irsiy kasallik

E) Yuqumsiz kasallik

2. Oqsil kasalligini nima qo‘zg‘atadi?

A) Oqsil virusi

B) Bakteriyalar

D) Zamburug‘lar

E) Gelmintlar

3. Oqsil kasalligiga ko‘proq qaysi hayvonlar moyil?

A) Qoramol, qo‘y, echki, cho‘chqa

B) Faqat otlar

D) Faqat itlar

E) Faqat parrandalar

4. Oqsil kasalligiga xos asosiy belgilar qaysilar?

A) Isitma, og‘iz bo‘shlig‘i va tuyoq oralig‘ida pufakchalar hamda yaralar paydo bo‘lishi

B) Faqat yo‘tal

D) Faqat ko‘zning yoshlanishi

E) Faqat jun to‘kilishi

5. Oqsil kasalligi aniqlanganda birinchi navbatda nima qilish kerak?

A) Kasal hayvonlarni ajratish va veterinariya xizmatiga xabar berish

B) Hayvonlarni boshqa xo‘jalikka ko‘chirish

D) Kasal hayvonlarni sog‘lomlari bilan aralashtirish

E) Hayvonlarni nazoratsiz yaylovga chiqarish

6. Oqsil kasalligining tarqalishini oldini olishda nima muhim?

A) Karantin va veterinariya-sanitariya tadbirlarini amalga oshirish

B) Hayvonlarni erkin ko‘chirish

D) Kasal hayvonlarni sotish

E) Dezinfeksiyani to‘xtatish

7. Oqsil kasalligi bilan kurashishda dezinfeksiyaning vazifasi nima?

A) Virus bilan ifloslangan muhit va jihozlarni zararsizlantirish

B) Hayvonlarning vaznini oshirish

D) Ozuqa miqdorini ko‘paytirish

E) Hayvonlarning naslini yaxshilash

8. Oqsil kasalligiga qarshi profilaktik tadbirlardan biri qaysi?

A) Veterinariya qoidalariga muvofiq emlash va muntazam nazorat olib borish

B) Kasal hayvonlarni sog‘lom hayvonlar bilan birga saqlash

D) Hayvonlarni nazoratsiz olib kirish va chiqarish

E) Sanitariya talablarini bajarmaslik

9. Oqsil kasalligi aniqlangan xo‘jalikda hayvonlarni ko‘chirish masalasida qanday chora ko‘riladi?

A) Belgilangan veterinariya cheklovlari asosida hayvonlar harakati nazorat qilinadi

B) Hayvonlar istalgan joyga ko‘chiriladi

D) Hayvonlar bozorga chiqariladi

E) Hech qanday nazorat olib borilmaydi

10. Oqsil kasalligiga qarshi kurashishdan asosiy maqsad nima?

A) Kasallikning tarqalishini to‘xtatish va sog‘lom hayvonlarni himoya qilish

B) Hayvonlarning vaznini oshirish

D) Ozuqa sarfini kamaytirish

E) Hayvonlarni tezroq sotish